



ROSSIYANING MARKAZIY OSIYODAGI YUMSHOQ KUCH SIYOSATI VA MINTAQAVIY TA'SIR MEXANIZMLARI

Norboyeva Zarinabonu Ikromjon qizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Xalqaro munosabatlar va zamonaviy siyosiy jarayonlar magistranti

Anotatsiya. *Mazkur maqolada Rossiyaning Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatlarida “Yumshoq kuch” konsepsiyasining turli omillari mintaqaviy siyosiy strategiyasi yoritilgan. “Yumshoq kuch” konsepsiyasi Jozef Nay nazariyasiga ko'ra izohlanib, madaniy diplomatiya, ta'lim, orqali ta'sir o'tkazish usullari tahlil qilingan. Shuningdek maqolada MDH, ShHT, KXSHT, kabi ko'p tomonlama tashkilotlarning roli, Rossiya tili va madaniyatini targ'ib qiluvchi institutlar (Rossotrudnichestvo, Russkiy Mir jamg'armasi), ta'lim hamkorligi, axborot-media diplomatiyasi (RT, Sputnik), kabi institutlarning roli hamda Rossiyaning Markaziy Osiyoda ta'sir doirasini kengaytirishdagi faoliyati ochib beriladi. Maqolada Rossiyaning Markaziy Osiyoda barqaror hamkorlik va mintaqaviy integratsiyani kuchaytirishga qaratilgan strategik sheriklikni rivojlanib borish evolyutsiyasini yoritishga harakat qilingan.*

Kalit so'zlar. *Yumshoq kuch, Rossiya, Markaziy Osiyo, MDH, Russkiy Mir, Rossotrudnichestvo, ta'lim diplomatiyasi*

Kirish

Markaziy Osiyo geosiyosiy jihatdan Yevropa va Osiyoni bog'lovchi muhim strategik hudud hisoblanadi. Mintaqaning tabiiy resurslarga boyligi, xalqaro transport-kommunikatsiya yo'llarining kesishgan nuqtasida joylashganligi hamda tarixiy-sivilizatsion ahamiyati uni yirik davlatlar manfaatlarini to'qnashadigan geosiyosiy makonga aylantirgan. Rossiya va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi munosabatlar chuqur tarixiy ildizlarga ega bo'lib, ularning shakllanishida sobiq



Sovet Ittifoqi davri muhim o‘rin tutadi. Mustaqillikka erishgandan so‘ng mintaqa davlatlari Rossiya bilan iqtisodiy, siyosiy, madaniy va gumanitar aloqalarni saqlab qolganligi sababli Rossiyaning “yumshoq kuch” siyosatini amalga oshirilishi boshqa tashqi aktorlarga nisbatan nisbatan qulay sharoitda kechdi. Rus tili, ta’lim tizimi, umumiy tarixiy xotira va madaniy aloqalar mintaqa aholisi uchun begona bo‘lmaganligi sababli Rossiyaning yumshoq kuch vositalari mahalliy muhitga tezroq moslashish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Biroq Rossiyaning yumshoq kuch siyosati mustaqillikning ilk yillaridayoq faol ravishda shakllanib ketmagan. Dastlab Rossiyaning o‘zi ham ushbu konsepsiyaga yetarlicha e’tibor qaratmadi. Bunga bir tomondan Sovet Ittifoqi parchalanishidan keyin Rossiyada yuzaga kelgan iqtisodiy va siyosiy inqirozlar, ikkinchi tomondan esa Markaziy Osiyo davlatlarining milliy davlatchilik asoslarini shakllantirish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va ichki siyosiy barqarorlikni ta’minlash bilan band bo‘lganligi sabab bo‘ldi. Shu bois Rossiyaning mintaqadagi yumshoq kuch siyosati asta-sekin rivojlanib, 2000-yillarning o‘rtalaridan boshlab Rossiya tashqi siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, Rossiyaning mintaqadagi tarixiy-madaniy ta’sirini saqlab qolish va strategik sheriklikni mustahkamlash zarurati yumshoq kuch vositalaridan kengroq foydalanishga turtki berdi.

Yumshoq kuchning nazariy va konsepsual asosi

XX asrning oxiri va XXI asr boshlariga kelib xalqaro tartibda chuqur o‘zgarishlar yuz berdi: globallasuv, axborot inqilobi, transmilliy aktorlar sonining ortishi va “yumshoq” jozibadorlik resurslarining ahamiyati kuchaydi. 1990-yilda amerikalik siyosatshunos Joseph S. Nye ushbu yangi sharoitda “yumshoq kuch” (soft power) tushunchasini ilmiy muomalaga kiritdi va u qisqa vaqt ichida xalqaro



munosabatlar nazariyasining markaziy konseptlaridan biriga aylandi.¹ Keyinchalik 2004 yilda muallif “Yumshoq kuch: jahon siyosatida muvaffaqiyatga erishish vositalari” nomli kitobida va boshqa ilmiy maqolalarida davlatlarning tashqi siyosatida “Yumshoq kuch” omilini konsepsiya sifatida batafsil izohlagan. Nye ga ko‘ra, yumshoq kuch madaniyat, siyosiy qadriyatlar va xalqaro institutlar kabi moddiy bo‘lmagan resurslarga tayangan holda boshqalarning afzalliklari va tanlovlariga ta’sir ko‘rsatish hamda ularni shakllantirish qobiliyatidir². U jozibadorlik (attractiveness) omiliga alohida urg‘u berishi bilan farqlanadi. Mafkurasi va madaniyati boshqa jamiyatlar uchun jozibali bo‘lgan, siyosati xalqaro jamoatchilik tomonidan qonuniy va legitim deb qabul qilinadigan hamda boshqa davlatlar qo‘shilishni istaydigan xalqaro institutlarni shakllantira olgan mamlakatlarning istaklari odatda kamroq qarshilikka uchraydi. Natijada bunday davlatlar xalqaro maydonda o‘z maqsadlariga erishish uchun majburlash yoki rag‘batlantirish kabi qimmatga tushadigan qattiq kuch (hard power) vositalariga kamroq murojaat qiladilar. Yumshoq kuch qisqa muddatda aniq va ko‘zga ko‘rinadigan natijalar berish borasida qattiq kuchdan ortda qolishi mumkin. Biroq uning ta’siri keng yoyilish xususiyatiga ega bo‘lib, u omma ongiga chuqur, barqaror va keng ko‘lamda singib boradi. Shu sababli yumshoq kuch davlatlarning uzoq muddatli strategik maqsadlariga erishishida muhim rol o‘ynaydi. Biroq Rossiyada yumshoq kuch haqidagi tasavvur ko‘proq pragmatik va instrumental (vosita sifatida qo‘llaniladigan) xarakterga ega ekanligi kuzatiladi. Darhaqiqat, yumshoq kuch tushunchasi Rossiya tashqi siyosiy diskursiga kirib kela boshlagan 2008-yilda Moskva bu konsepsiyani asosan postsovet mamlakatlarida yashovchi o‘z vatandoshlariga nisbatan qo‘llaniladigan siyosiy vosita sifatida ko‘rgan. Rossiya tashqi ishlar vaziri **Sergey Lavrov** Rossiyskaya Gazeta nashriga bergan intervyusida bu masalani quyidagicha izohlagan: “Bugungi kunda dunyoga madaniy, gumanitar,

¹ Nye, J. S. (1990). Bound to Lead: The Changing Nature of American Power. New York: Basic Books. – B. 188.

² Nye, J. S. (2004) Soft Power : The Means to Success in World Politics, New York: Public Affairs.



tashqi siyosiy va boshqa jozibadorlik shakllari orqali ta'sir ko'rsatish qobiliyati sifatida ta'riflanadigan 'yumshoq kuch' tobora muhim rol o'ynamoqda. Men ishonamanki, mamlakatimiz chegaralaridan tashqarida yashayotgan barcha vatandoshlarimiz bilan aloqalarimiz aynan shu omillarni hisobga olgan holda qurilishi kerak.”³

Yumshoq kuch tushunchasiga nisbatan dastlabki yillarda ilgari surilgan ushbu instrumental yondashuv vaqt o'tishi bilan qisman o'zgardi va o'rnini nisbatan kengroq qamrovli, biroq hanz pragmatik mazmundagi tushuncha egalladi. 2012-yilda **Vladimir Putin** “Rossiya va o'zgarayotgan dunyo” nomli maqolasida yumshoq kuchni “qurol ishlatmasdan turib axborot va boshqa vositalar yordamida tashqi siyosiy maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiluvchi usullar va metodlar majmui” sifatida ta'rifladi. ⁴Shunga o'xshash tarzda, 2013-yilda qabul qilingan Rossiyaning yangi Tashqi siyosat konsepsiyasida ham zamonaviy xalqaro siyosatning ajralmas qismiga aylangan yumshoq kuch tashqi siyosiy masalalarni hal etishga qaratilgan murakkab vositalar majmui sifatida tavsiflandi.⁵ Ushbu vositalar qatoriga fuqarolik jamiyati institutlari, axborot, kommunikatsiya, gumanitar yordam hamda an'anaviy diplomatiyaga muqobil bo'lgan boshqa usullar va texnologiyalar kiritildi. Rossiyada yumshoq kuch tushunchasi vaqt o'tishi bilan yanada kengroq va kompleks mazmun kasb etgan bo'lsa-da, mazkur ikkala ta'rif ham Nye tomonidan ilgari surilgan asl yondashuvdan sezilarli darajada farq qiladi. Nye siyosiy ta'sir kuchi bilan jozibador madaniyat, iqtisodiy farovonlik va axloqiy qadriyatlar o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud deb hisoblaydi. Uning nazariyasiga ko'ra, davlatlar aynan shu omillar orqali boshqalarning xohish va qarorlariga ta'sir ko'rsatadi. Rossiya yondashuvida esa yumshoq kuch, asosan, jozibadorlik yaratish

³ Lavrov, 2008; aktaran Sergunin ve Karabeshkin, 2015, s. 352

⁴ Tatlı, U. (2018). Yumuşak güç çerçevesinde Rusya Federasyonu dış politika konseptleri ve pratikleri (Yayımlanmamış yüksek lisans tezi). TOBB Ekonomi ve Teknoloji Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, Ankara.s. 81

⁵ Ministry of Foreign Affairs of the Russian Federation, 2013



bilan bog‘liq emas. Aksincha, u ko‘proq tashqi siyosiy maqsadlarga erishish, raqiblarni manipulyatsiya qilish, ularning faoliyatini izdan chiqarish va zaiflashtirish uchun qo‘llaniladigan harbiy bo‘lmagan vositalar sifatida talqin qilinadi. Shu sababli Rossiya yumshoq kuchni, avvalo, strategik manfaatlarga xizmat qiluvchi amaliy instrument sifatida ko‘radi. Bundan tashqari, Rossiya tashqi siyosatida xavfsizlikka yo‘naltirilgan yondashuvning ustunligi ham yumshoq kuchni tushunish va qo‘llash usullarining G‘arb davlatlaridagi amaliyotdan farq qilishiga sabab bo‘lgan. G‘arb mamlakatlari uchun yumshoq kuch, asosan, jozibadorlik yaratish, g‘arbona qadriyatlar va turmush tarzining boshqa jamiyatlar tomonidan ixtiyoriy ravishda qabul qilinishini rag‘batlantirish bilan bog‘liq. Rossiya uchun esa yumshoq kuch amaliyoti harbiy va majburlovchi vositalarni to‘ldiruvchi unsur sifatida namoyon bo‘ladi.⁶ U tashqi siyosatda milliy manfaatlar va xavfsizlik strategiyalariga xizmat qiladi hamda ayniqsa postsovet hududida ta’sir doirasi va ijobiy imij yaratish orqali xavfsizlik va hamkorlik makonini shakllantirishga qaratilgan.⁷ Shu ma’noda, Rossiyaning yumshoq kuch siyosati jozibadorlikka emas, balki geosiyosiy ta’sirni saqlash va kengaytirishga ko‘proq yo‘naltirilgan hisoblanadi.

Asosiy qism

Rossiya 2000-yillarning o‘rtalaridan boshlab o‘zining yumshoq kuchining madaniy tarkibiy qismini kuchaytirish maqsadida institutsional darajada faol ish olib bormoqda.⁸ Dastlab, 2005-yil fevral oyida Prezident Administratsiyasi tarkibida xorijiy mamlakatlarda rus tili, ta’limi va madaniyatini targ‘ib qilish bilan

⁶ Meister, S. (2016). Isolation and propaganda: The roots and instruments of Russia’s disinformation campaign (Transatlantic Academy 2015-2016 Paper Series, No. 6). Retrieved from <https://www.gmfus.org/publications/isolation-and-propaganda-roots-and-instruments-russia%E2%80%99s-disinformation-campaign-s-7>.

⁷ *Ekonomi, Politika & Finans Araştırmaları Dergisi*, 2021, 6(2): 483-514 *Journal of Research in Economics, Politics & Finance*, 2021, 6(2): 483-514 Araştırma Makalesi / Research Article, DOI: 10.30784/epfad.890491. Muhammed Kürşad ÖZEKİN & Sibel KIRCAN. S. 490

⁸ *Rusya’nın Egemen Demokrasi Modelinin Orta Asya Devletleri Üzerindeki Etkisinin Analizi Analysis of the Impact of Russia’s Sovereign Democracy Model on Central Asian States*. Fatma Aslı KELKİTLİ. pp 159



shug‘ullanuvchi Xorijiy Davlatlar va MDH bilan Mintaqalararo hamda Madaniy Aloqalar Departamenti tashkil etildi.⁹Shundan so‘ng, 2006-yil may oyida Markaziy Osiyo davlatlari — Qozog‘iston, Qirg‘iziston, O‘zbekiston va Tojikiston ishtirokida **IFESCO** (Ta‘lim, fan va madaniyat sohasidagi hukumatlararo hamkorlik jamg‘armasi) tuzildi. IFESCOning asosiy maqsadi ta‘lim, fan, madaniyat, ommaviy axborot vositalari, arxivlar, sport, turizm va yoshlar siyosati sohalarida a‘zo davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish hamda madaniyatlarni mulohazadan mustahkamlashdan iboratdir.¹⁰IFESCO tashkil etilganidan keyin, 2007-yil iyun oyida Rossiya Tashqi ishlar vazirligi va Ta‘lim hamda fan vazirligining qo‘shma tashabbusi bilan **Russkiy Mir Foundation** tashkil etildi. Ushbu jamg‘armaning vazifasi rus tilini xorijda targ‘ib qilish va uning rivojlanishiga ko‘maklashishdan iborat edi. Nihoyat, 2008-yil sentabr oyida Rossiyaning xorijdagi ijobiy imijini shakllantirishni asosiy maqsad qilgan **Rosstrudnichestvo** (MDH ishlari, xorijdagi vatandoshlar va xalqaro gumanitar hamkorlik bo‘yicha federal agentlik) Rossiya Tashqi ishlar vazirligi tarkibida tashkil etildi. Rossiya Markaziy Osiyoda rus madaniyatining davomiyligini ta‘minlash uchun rus tili, ta‘lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari hamda ommaviy madaniyat va ko‘ngilochar vositalardan keng foydalanmoqda. 2011-yil 6-iyunda o‘sha paytdagi Rossiya prezidenti **Dmitry Medvedev** tomonidan imzolangan farmonga ko‘ra, 6-iyun “Rus tili kuni” deb e‘lon qilindi. Shuningdek, 2015-yil 20-mayda qabul qilingan va 2016–2020-yillarni qamrab olgan federal dastur asosida rus tilini xorijiy mamlakatlarda o‘qitish va qo‘llash ko‘lamini kengaytirish uchun zarur kadrlar va moliyaviy resurslarni ta‘minlash hukumatning ustuvor vazifalaridan biriga aylandi. Rus tili Qozog‘iston va Qirg‘izistondagi rasmiy tillardan biri hisoblanadi va Markaziy Osiyoda taxminan 31,5 million kishi tomonidan so‘zlashiladi. Bu esa

⁹Jackson, N. J. (2010) “The Role of External Factors in Advancing Non-liberal Democratic Forms of Political Rule: A Case Study of Russia’s Influence on Central Asian Regimes”, *Contemporary Politics*, 16(1): 101-118..

¹⁰ IFESCO (2018). About the Intergovernmental Foundation for Educational, Scientific and Cultural Cooperation (IFESCO). <http://www.mfsgs-sng.org/eng/> (Erişim Tarihi: 28.01.2018).



mintaqa aholisining qariyb 44 foizi rus tilini bilishini anglatadi. Rossiya ushbu ko'rsatkichni yanada oshirish, ayniqsa yosh avlodning rus tili, adabiyoti va madaniyatini yaxshi o'zlashtirishini ta'minlash maqsadida IFESCO, Russkiy Mir va Rossotrudnichestvo orqali tizimli faoliyat olib bormoqda. Rossotrudnichestvo Astana, Bishkek, Dushanbe va Toshkentdagi ilmiy-madaniy markazlari orqali mintaqa aholisiga muntazam ravishda rus tilini o'rgatadi, rus tili o'qituvchilari uchun malaka oshirish seminarlarini tashkil qiladi, she'riyat kechalari o'tkazadi hamda rus romanlari va she'riyatini targ'ib qilishga qaratilgan tadbirlarni uyushtiradi. Oliy ta'lim sohasi Rossiyaning Markaziy Osiyodagi yumshoq kuchini yoyishda muhim vosita hisoblanadi. Rossiya universitetlarida Markaziy Osiyodan kelgan 150 mingga yaqin talaba tahsil olmoqda. Ularning 46 ming nafari Rossiya hukumati stipendiyasi asosida o'qiydi. Bundan tashqari, Rossiyaning **nufuzli universitetlari** Markaziy Osiyo mamlakatlarida o'z filiallariga ega¹¹. Jumladan:

- Lomonosov Moscow State University Qozog'iston, O'zbekiston va Tojikistonda;
- Plekhanov Russian University of Economics Qozog'iston va O'zbekistonda;
- National Research University MPEI Tojikistonda;
- National University of Science and Technology MISIS Tojikistonda;
- Gubkin Russian State University of Oil and Gas O'zbekistonda;
- Moscow Aviation Institute,
- Saint Petersburg University of Humanities and Social Sciences,
- Chelyabinsk State University esa Qozog'istonda o'z filiallari orqali faoliyat yuritmoqda.

¹¹ The Ministry of Foreign Affairs of the Russian Federation (2013). Concept of the Foreign Policy of the Russian Federation. http://www.mid.ru/en/foreign_policy/official_documents/-/asset_publisher/CptlCKB6BZ29/content/id/122186 (Erişim Tarihi: 03.12.2017).



2017-yil aprel–iyun oylarida **Eurasian Development Bank** va Eurasian Monitor tadqiqot markazi tomonidan sobiq Sovet Ittifoqining yetti mamlakatida o‘tkazilgan so‘rov natijalariga ko‘ra, Markaziy Osiyo davlatlari orasida Tojikiston fuqarolari (36%), Qirg‘iziston fuqarolari (28%) va Qozog‘iston fuqarolari (24%) Rossiyada ta‘lim olishga eng ko‘p qiziqish bildirgan.¹² Biroq mintaqadagi ta‘lim maydonida Rossiya yagona ta‘sir markazi emas. AQSH, Germaniya va Buyuk Britaniya universitetlari o‘zlarining yuqori ta‘lim sifati va xalqaro nufuzi bilan Markaziy Osiyo yoshlari e‘tiborini tortmoqda. Shuningdek, geografik yaqinlik va keng stipendiya dasturlari tufayli Xitoy universitetlari ham mintaqa talabalari orasida tobora ommalashib bormoqda. Natijada Markaziy Osiyoda ta‘lim va madaniy ta‘sir uchun raqobat tobora kuchayib bormoqda. Bundan tashqari, Rossiyaning muhim hissasi bo‘lgan **Commonwealth of Independent States** (Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi – MDH), **Shanghai Cooperation Organisation** (Shanxay Hamkorlik Tashkiloti – ShHT) va **Collective Security Treaty Organization** (Kollektiv Xavfsizlik Shartnomasi Tashkiloti – KXSHT) kabi tashkilotlarning Rossiyaning mintaqada o‘z siyosiy qadriyatlarini yoyishda muhim rol o‘ynaydi. Rossiya yuqorida aytganimizdek yumshoq kuchni o‘zi xohlaganidek boshqalarga bildirmasdan jalb qilish vositasi sifatida emas balki milliy manfaatlarini yoyish vositasi sifatida harbiy iqtisodiy migratsiya kabi tashqi siyosat konsepsiyasi vositalarini ham yumshoq kuch vositasi sifatida foydalanadi. Rossiya Ichki ishlar vazirligi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2024-yil 1-sentabr holatida Rossiya hududida Markaziy Osiyo davlatlarining 3,985 million fuqarosi istiqomat qilgan. Ularning 1,792 million nafari O‘zbekiston, 1,231 million nafari Tojikiston, 606,9 ming nafari Qozog‘iston, 262,8 ming nafari Qirg‘iziston va 92 ming nafari Turkmaniston fuqarolaridir¹³. Ushbu ko‘rsatkichlar Markaziy Osiyoning Rossiya

¹² (Eurasian Development Bank (2017) EDB Integration Barometer – 2017, Saint Petersburg: Eurasian Development Bank Centre for Integration Studies.15)

¹³ <https://share.google/gabnJ6woqESXXJGJg>



uchun nafaqat mehnat resurslari manbai, balki muhim ijtimoiy-demografik va geosiyosiy makon ekanligini ko'rsatadi. Markaziy Osiyo davlatlarining Rossiya mehnat bozoriga yuqori darajada bog'liqligi Moskvaning mintaqadagi siyosiy va iqtisodiy ta'sirini kuchaytiruvchi omil sifatida ham namoyon bo'ladi. Rossiya iqtisodiyotining qurilish, xizmat ko'rsatish, transport va kommunal xo'jalik kabi tarmoqlari migrantlar mehnatiga tayanayotgan bir paytda, Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun migrantlar yuborayotgan pul o'tkazmalari milliy iqtisodiyotning muhim daromad manbai hisoblanadi. Bu esa Rossiya va Markaziy Osiyo o'rtasida o'zaro qaramlik munosabatlarini shakllantirib, Moskvaning mintaqadagi yumshoq kuch salohiyatini qo'llab-quvvatlaydi.

Xulosa

Rossiyaning Markaziy Osiyo davlatlariga nisbatan olib borayotgan yumshoq kuch siyosati mintaqadagi strategik sheriklik munosabatlarini saqlab qolish va rivojlantirishning muhim vositalaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Sovet Ittifoqi davridan meros bo'lib qolgan umumiy tarixiy xotira, rus tilining keng tarqalganligi, ta'lim va madaniy aloqalarning davom etishi Rossiyaning mintaqadagi yumshoq kuch salohiyati uchun mustahkam asos yaratmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Rossiya yumshoq kuch konsepsiyasini G'arb davlatlaridan farqli ravishda asosan pragmatik va geosiyosiy manfaatlarga xizmat qiluvchi vosita sifatida talqin etadi. Joseph Nye nazariyasida yumshoq kuchning asosiy elementi jozibadorlik va ixtiyoriy ergashuv bo'lsa, Rossiya amaliyotida u ko'proq tashqi siyosiy maqsadlarni amalga oshirish, mintaqadagi ta'sirini saqlab qolish va xavfsizlik manfaatlarini himoya qilish bilan bog'laydi. Rossiya tomonidan tashkil etilgan yoki faol qo'llab-quvvatlanayotgan MDH, ShHT, KXSHT kabi integratsion tuzilmalari mintaqada siyosiy va institutsional hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, Rossotrudnichestvo, Russkiy Mir jamg'armasi va Rossiya oliy ta'lim muassasalari filiallari orqali rus tili, madaniyati va ta'lim tizimi



targ'ib qilinib, Rossiyaning gumanitar ta'siri mustahkamlanmoqda. Bundan tashqari, migratsiya jarayonlari ham Rossiyaning Markaziy Osiyodagi yumshoq kuch siyosatining muhim tarkibiy qismiga aylangan. Rossiyada istiqomat qilayotgan millionlab Markaziy Osiyo fuqarolari ikki tomonlama iqtisodiy va ijtimoiy aloqalarni rivojlantirish bilan bir qatorda rus tili va madaniyatining mintaqadagi ta'sirini saqlab qolishga xizmat qilmoqda. Bu holat Rossiya va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida o'zaro bog'liqlik munosabatlarini shakllantirib, Moskvaning mintaqadagi pozitsiyalarini mustahkamlashga yordam bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Nye, J. S. (1990). Bound to Lead: The Changing Nature of American Power. New York: Basic Books. – B. 188.
2. Nye, J. S. (2004) Soft Power : The Means to Success in World Politics, New York: Public Affairs.
3. Lavrov, 2008; aktaran Sergunin ve Karabeshkin, 2015, s. 352
4. Tatlı, U. (2018). Yumuşak güç çerçevesinde Rusya Federasyonu dış politika konseptleri ve pratikleri (Yayımlanmamış yüksek lisans tezi). TOBB Ekonomi ve Teknoloji Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, Ankara.s. 81
5. Ministry of Foreign Affairs of the Russian Federation, 2013
6. Meister, S. (2016). Isolation and propaganda: The roots and instruments of Russia's disinformation campaign (Transatlantic Academy 2015-2016 Paper Series, No. 6). Retrieved from <https://www.gmfus.org/publications/isolation-and-propaganda-roots-and-instruments-russia%E2%80%99s-disinformation-campaign> s. 7).
7. Ekonomi, Politika & Finans Araştırmaları Dergisi, 2021, 6(2): 483-514
Journal of Research in Economics, Politics & Finance, 2021, 6(2): 483-514



Araştırma Makalesi / Research Article, DOI: 10.30784/epfad.890491. Muhammed Kürşad ÖZEKİN & Sibel KIRCAN. S. 490

8. Rusya'nın Egemen Demokrasi Modelinin Orta Asya Devletleri Üzerindeki Etkisinin Analizi Analysis of the Impact of Russia's Sovereign Democracy Model on Central Asian States. Fatma Aslı KELKİTLİ.pp 159

9. Jackson, N. J. (2010) "The Role of External Factors in Advancing Non-liberal Democratic Forms of Political Rule: A Case Study of Russia's Influence on Central Asian Regimes", Contemporary Politics, 16(1): 101-118..

10. IFESCCO (2018). About the Intergovernmental Foundation for Educational, Scientific and Cultural Cooperation (IFESCCO). <http://www.mfgs-sng.org/eng/> (Erişim Tarihi: 28.01.2018).

11. The Ministry of Foreign Affairs of the Russian Federation (2013). Concept of the Foreign Policy of the Russian Federation. http://www.mid.ru/en/foreign_policy/official_documents/-/asset_publisher/CptICkB6BZ29/content/id/122186 (Erişim Tarihi: 03.12.2017).

12. (Eurasian Development Bank (2017) EDB Integration Barometer – 2017, Saint Petersburg: Eurasian Development Bank Centre for Integration Studies.15)

13. <https://share.google/gabnJ6woqESXXJGJg>